# TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2023
6-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274

Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.
1996-yilda tashkil etilgan.

Tahrir hay'ati raisi:
**Sh.U.Yakubov**
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari:
**M.X.Esanov**

Bosh muharrir:
**T.Axmedov**

Bosh muharrir o'rinbosari:
**A.A.Sabriyev**

Tahrir hay'ati a'zolari:
**L.R.Zaripov**
**A.A.Dadasheva**
**Sh.A.Rasulov**
**M.M.Inagamova**
**S.Q.Maxsumova**
**S.S.Samandarova**
**M.Q.Sultonov**
**S.S.G'oziyev**
**O.N.Toshpulatov**

Jamoatchilik kengashi a'zolari:
**Q.X.Abduraxmanov**
**Sh.T.Qudratxo'ja**
**G.Sh.Rixsiyeva**
**Sh.S.Sirojiddinov**
**R.I.Xolmurodov**
**A.I.Toshpulatov**
**N.M.Jabborov**
**M.A.Raxmatullaev**
**T.Z.Teshabayev**

Dizayner:
**S.L.Musamedov**

# TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

***Музаффар Эсанов.***
Олий малакали кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш ........................ 6
***Рустам Рашидов.***
Сиёсий жараёнларни тадқиқ этиш ва ўрганишга доир концептуал қарашлар ҳамда ёндашувлар ........................ 9
***Hakim Rasulov.***
Siyosiy-huquqiy ong va madaniyat — siyosiy modernizatsiyaning omili sifatida. 13
***Новваль Рузметова.***
Повышение эффективности образовательного процесса в юридических техникумах (на примере учебных игр) ........................ 17
***Sherzod Islomov.***
Tizimli tahlil orqali talabalarining tashkiliy-boshqaruv kompetentligini rivojlantirish ........................ 21
***Ximmat Eshbayev.***
Barkamol avlod tarbiyasida etnosportning o'rni va ahamiyati ........................ 25
***Feruza Abdullaeva.***
Developing the professional communicative skills of tourism students........................ 27
***Ma'sumaxon Abdullayeva.***
XXI asr yangi psixologiyasining pedagogika bilan bog'liqlik masalalari........................ 30
***Abrorjon Maxmudov.***
Axborot-ta'lim muhitida bakalavriat talabalarining raqamli madaniyatini shakllantirish ........................ 33
***Adash Rustamova.***
An analysis of students' reading comprehension based on pedagogical diagnostics..... 36
***Dilnoza Kulboyeva.***
Boshlangich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish (texnologiya fani misolida) ........................ 39
***Shahobiddin Duvlanov.***
"O'zbek jang san'ati" kelib chiqishi va yaratilish tarixi........................ 42
***Khalifa Paluanova.***
Modern type of language teaching is pragmalinguodidactic ........................ 46
***Javlonbek Madaminov.***
Muhandislik kompyuter grafikasi fanini o'qitishning zarurati ........................ 49
***Shavkat Karshiboyev.***
Fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ........................ 53
***Jasur Mamanov, Sherali Boboxonov.***
Axborot texnologiyalari vositasida maktab o'quvchilarining informatika faniga tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish........................ 57
***Adash Rustamova.***
Analyzing Students' Listening Skills Based on Pedagogical Diagnostics........................ 61
***Diloram Shodmonqulova.***
Fonetika asoslarini o'rganish xususiyatlari........................ 64
***Jasurbek O'ralov.***
Malakali futbolchi ayollarni tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan | foydalanish yo'llari ........................ 67
***Shaxlo Ulasheva***
Iqtisodiyot fanlari bakalavrlari uchun matematika fanidan ekonometrika metodikasi ........................ 70
***Sanjaridin Zoirov.***
Oliy ta'limda laboratoriya ishlarini "Labview" dasturida virtual yaratish metodikasi ........................ 73
***Jur'at Saidov.***
Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalash........................ 77
***Зиёдулло Исоков.***
Олий ўқув юртларида ноанъанавий таълимни ривожлантиришнинг долзарб масалалари ........................ 80

**Muassislar:**
*O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,*
*Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi*

**Manzil:** 100095, Toshkent sh.
2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy.
**Telefon:** (71) 207-03-41
**e-mail:** rmxat@edu.uz

**Jurnal O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 2014-yil 26-dekabrda 0506 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.**

*Jurnal har ikki oyda o‘zbek, rus va ingliz tillarida elektron shaklda chop etiladi.*

“Ta’lim, fan va innovatsiya” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2015-yil 18-noyabrdagi 218/5-sonli qarori bilan 13.00.00 — PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha, 2018-yil 28-noyabrdagi 247/6-sonli qarori bilan 23.00.00 — SIYOSIY FANLAR bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ta’lim, fan va innovatsiya” jurnalidan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi. Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir. Tahririyat fikri mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin.

*Jurnalning to‘liq matnini* ***esijournal.uz*** *rasmiy saytidan yuklab olishingiz mumkin.*

*Maqola va murojaatlarningizni* ***@esijournalbot*** *telegram botiga yuboring.*

***Durdonakhan Tukhtasinova.***
How To Teach The English Language To Mixed Level Students........................... 83
***Бобур Қодиров.***
Талабаларнинг маълумотлар базасини яратиш компетентлигини такомиллаштиришда дастурлаш технологияларидан фойдаланиш.......................................... 85
***Shoira Rahimova.***
Unsurul-maoliy kaykovusning “Qobusnoma” asarida farzand tarbiyasiga oid fikrlarning ifodalanishi........................................................................................ 88
***Мусурмон Хуррамов.***
Олий таълим муассасалари фаолиятига сунъий интеллект технологиясини жорий этиш истиқболлари...................................................................................... 91
***Сарвиноз Салимова.***
Бўлажак ўқитувчиларнинг замонавий модели ва квалиметрик диагностикаси................................................................................ 94
***Jur’at Saidov.***
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va o‘yinchoqlarning pedagogik ahamiyati. ........................................................................................ 98
***Noiba Sobirova.***
Shaxsda mantiqiy fikrlashni o‘stirishning o‘ziga xos xususiyatlari...................... 101
***Raxat Shilmanov.***
Milliy harakatli o‘yinlarning mazmun-mohiyati ................................................. 104
***Oybek Abdimurotov.***
Kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilariga mustaqil ta’limni tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida ................................. 106
***Mixayyo Alikulova.***
Jahon tajribasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga doir ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar tahlili..................................................................................... 110
***Dilmurod Abdusamiyev.***
O‘qituvchilar kasbiy salohiyatini oshirishda talis baholash dasturining pedagogik imkoniyatlari ..................................................................................... 113
***Sojida Ashirova.***
Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda pedagogik amaliyotlarning o‘rni ....................................................... 116
***Shapulat Atabayev, Dildora Raximjonova***
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish ............. 119
***Muqaddas Egamberdiyeva.***
Multimedia vositalari asosida tayyorlov guruhi bolalarini ijodiy hikoya tuzishga o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari............ 122
***Dauletmurat Bekmuratov, Ismaxmud Baymuratov.***
Jismoniy sifatlarning umumiy tavsifi va ularni rivojlantirish............................... 125
***Charos Axmadova.***
Sinfdan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiya ishlariga tasnif...................... 128
***Faxriddin Qosimov.***
Malaka oshirish jarayonida jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirish modeli ............................................................ 131
***Sevara Yuldasheva.***
The effectivness of 5 e’s of ibl in teaching english language ............................... 134
***Зайниддин Арзиқулов.***
Физика фани ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш ...................................................................................... 138
***Dilfuza Qurbonboyeva.***
Talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi............................................................................... 141
***Камол Давуров.***
Замонавий информатика ўқитувчиларининг касбий тармоқ жамоаларини яратиш самарадорлиги ............................................................................................ 144
***Dilrabo Qoirova.***
Yangi islohotlar — yangi darsliklar ...................................................................... 147
***Umid Yakubov.***
Talabalarda menejerlik kompetensiyasini takomillashtirishda boshqarish usullarining mazmuni............................................................................................. 150
***Sevinchoy Ro‘zimboyeva.***
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlarda pedagogik faoliyatni tashkil etish mazmuni ....................................................................................... 153

*Azamat Eshmurodov.*
Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda qiziqish va motivatsiya uyg'otuvchi omillar ........................................ 295
*Sabrina Xamidova.*
Improvement of facilitation skills of future education teachers in the credit module system .................................. 298
*Farhodjon Yo'ldoshev*
Bo'lajak o'qituvchilarning aksiologik madaniyatini shakllantirish muammolari ................................................ 301
*Malika Tolipova.*
O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda "Taym menejment"ni pedagogik texnologiya sifatida qo'llash....... 304
*Дилнура Султанова.*
Таълим кластери шароитида талабаларнинг бошқарув компетенцияларини ривожлантириш педагогик муаммо сифатида........................................................................... 307
*Azizabonu Babayeva.*
Ko'rishda nuqsonga ega bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oiladagi muammolarning umumiy jihatlari ........................ 310
*Aziz Khuzhakulov.*
Recycling of old car tires and polymer waste to produce bitumen binders ....................................................... 313
*Gulnoz Ergasheva.*
Nutqiy etiketlar lug'ati uchun so'zlikni tanlash mezonlari........317
*Refide Ablyakimova.*
Xotin-qizlarda boshqaruvchanlik kompetensiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik aspekt....................... 320
*Anvar Nurmuratov.*
"UzEDL" elektron platformasi vositasida ingliz tilini o'qitish imkoniyatlari ...................................................................... 323
*Эльвира Хазиева.*
Влияние современных мобильных приложений на когнитивную сферу старших школьников ............................... 327
*Faxriniso Lutfilloyeva.*
Yapon tili iyerogliflarini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari ........................................................................ 330
*Abdujalil Shodmonov.*
Buxoro amirligida ta'lim tizimi va uning muammolari....... 334
*Zarifa Xudayqulova.*
Improving the possibilities of preparing future pedagogues for spiritual and educational activities based on axiological approaches........................................................................ 337
*Nargiza G'oibova.*
Texnika oliy ta'lim muassasalarida fizika bo'limlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirib o'qitish ....... 340
*Furqatjon Madaminov.*
Oliy ta'lim muassasalarida fanga faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi ...........................................343
*Munojat Tashibekova.*
Stem ta'limi boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantishning muhim omili sifatida ...............345
*Gulchehra Insapova.*
Nutq madaniyati va o'qituvchining kasbiy faoliyati...........348
*Marifjon Xoldarov, O'ktamxon Tojiyeva.*
Jamoat salomatligi texnikumi talabalarining kichik guruhlarda ishlashga oid kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish .......................................350
*Nodira Mirzayeva.*
O'zbekistonda steam ta'limni pedagogik ta'lim klasteri asosida o'qitish metodikasi ("eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili misolida) ..........................................................................354
*Нигора Хамидова, Ситора Хамидова.*
Развитие педагогичиских качеств студентов в учебном процессе ..........................................................................358
*Kudrat Nazirov.*
Kollej o'quvchilarining amaliy-kasbiy jismoniy tayyorgarlik xususiyatlari .......................................................................360
*Xurshidaxon Raximova*
O'zbekiston sharoitida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning me'yoriy-huquqiy asoslari .............................364
*Shaxnoza Sharipova.*
Steam texnologiyasidan foydalanishda ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari ...........................................................367
*Xurshid Ibragimov.*
Tasviriy san'atning rangtasvir fanida nazariya va plener amaliyoti uyg'unligining didaktik imkoniyatlari ................370
*Dilnoza Kalandarova.*
Oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanlarini o'qitishda virtual ta'lim texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish (zoologiya fani misolida) ........................374
*Lola Rozikova.*
O'qituvchilar jamoasidagi konfliktli kompetensiyani shakllantirish omillari .......................................................377
*Равиль Дулатов, Кудрат Назиров.*
Психологические факторы адаптации спортсменов к соревновательной деятельности ......................................381
*Gulnoz Amanova.*
Talabalarning kognitiv kompetensiyasi: mazmuni va diagnostika .........................................................................384
*Xilola Botirova.*
O'quvchilarda cholg'u ijrochilik kompetensiyasini shakllantirish uslublari .......................................................387
*Alisher Niyozov, Munisa Nurmurodova.*
Kimyo fanidan amaliyot darslarini tashkil etishda "4K" modeli kompetensiyasidan foydalanish usullari .............................390
*Surayyo Do'stova.*
Bobur g'azallari mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...........................................394
*Xurinisa Qarshiboyeva.*
Boshlang'ich sinflarda bo'shliqlar bilan ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar.............................................................397
*Donyor G'ofurov.*
Improvement of team management and cohesiveness skills among employees of higher education institutions based on innovative approaches.......................................................399
*Gulnoza Xalbayeva.*
Bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligining psixologik muammolari ..........................................................................403
*Dilso'z Xurramova.*
Talabalarni interfaol texnologiyalar asosida o'qitishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish muammosining o'rganilganlik darajasi ..........................................................................407
*Baxodir Azamxonov.*
Muhandislik sohasi talabalarining AKT kompetentligini shakllantirishda pedagogik yo'naltirishning xususiyatlari... 411
*O'rinposhsha Qalandarova.*
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari ........414
*Bog'dagul Qarshiyeva.*
Noqardosh tillarda texnik terminlarni tarjima qilishda internet ilovalardan foydalanish ......................................................417
*Mirali Maxmudov.*
Tasviriy san'at darslarida talabalarga kompozitsiya qonun va qoidalarini o'rgatish orqali ularning qobiliyatlarini rivojlantirish ......................................................................420
*Shaxnoza Kadirova.*
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida milliy g'urur hissini shakllantirish pedagogik muammo sifatida ...423
*Urinbay Nurtayev.*
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini san'atshunoslik

# TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TALABALARGA KOMPOZITSIYA QONUN VA QOIDALARINI O'RGATISH ORQALI ULARNING QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

**Mirali Maxmudov,**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi katta o'qituvchisi

***Annotatsiya***

*Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarga kompozitsiya qonun va qoidalarini o'rgatish orqali ularning qobiliyatlarini rivojlantirish hamda tasviriy san'at asarlarida kompozitsiyasining qanday tarzda talqin etilganiga alohida e'tibor bilan qarash ayniqsa, tabiat manzaralari, yirik, votqeaband mavzuli polotnolar va maxobatli devoriy asarlarning kompozitsiyalari va unga oid ma'lumotlar o'rganiladi.Maqola mavzusini yoritish maqsadida xorijiy va mahalliy adabiyotlardan foydalanildi. Maqola tadqiqoti taqqoslash, qiyoslov va adabiyotlar tahlili kabi metodlardan foydalangan holda olib borildi.*

***Kali so'zlar:*** *kompozitsiya, obraz, polotno, mahobatli, kolorit, eksklyuziv, konstruktiv, format, ritm, contrast, dekorativ, dinamika, statika, simmetriya, assimmetriya, syujet, interyer, portret, siluet.*

***Аннотация***

*Целью данной статьи является развитие способностей студентов путем обучения их законам и правилам композиции в высших учебных заведениях, а также обратить особое внимание на то, как трактуется композиция в произведениях изобразительного искусства, особенно в природных сценах, больших, масштабных изучаются тематические полотна, масштабные произведения искусства, композиции настенных произведений и сопутствующая информация. Для освещения темы статьи использована зарубежная и отечественная литература. Исследование статьи проводилось с использованием таких методов, как сравнение, сопоставление и анализ литературы.*

***Ключевые слова:*** *композиция, образ, холст, величественный, красочный, эксклюзивный, конструктивный, формат, ритм, контраст, декоративный, динамичный, статичный, симметрия, асимметрия, сюжет, интерьер, портрет, силуэт.*

***Annotation***

*This article aims to develop students' abilities by teaching them the laws and rules of composition in institutions of higher education, and to pay special attention to how composition is interpreted in works of visual art, especially natural scenes, large, large-scale thematic canvases, and large-scale works of art. compositions of mural works and related information are studied. In order to cover the subject of the article, foreign and domestic literature was used. Article research was conducted using methods such as comparison, comparison and literature analysis.*

***Keywords:*** *composition, image, canvas, majestic, colorful, exclusive, constructive, format, rhythm, contrast, decorative, dynamic, static, symmetry, asymmetry, plot, interior, portrait, silhouette.*

Insoniyat jadal taraqqiyot yo'liga yuz burganidan buyon badiiy tafakkurga ko'proq extiyoj seza boshladi. Bu jarayon shunga olib keldiki, bugun san'at inson ijtimoiy xayotining ajralmas bir qismiga aylandi. Chunki san'at xayotni chuqur o'rganishda, uni go'zallik me'zonlari nuqtayi nazaridan idrok etishda hamda nafosat olamining ilg'ab olish murakkab bo'lgan nozik sir-asrorlarini anglash va aks etishda yaqin ko'makdoshdir. San'at insonlarning obrazli tasavvuri, tafakkur dunyosining manbai bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda u xayotning badiiy tasviri, aks sadosidir. O'zbek milliy san'ati boy tarixga, uzining ko'plab turlari, ajoyib turfa namunalariga ega. Ana shu qadim o'tmishdan rivojlanib, takomillashib kelayotgan barxayot qadriyatlarimiz xozirgi turmushimizni yanada go'zal, mazmunli qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

San'atshunos olimlar bu muammoni hal etishlari uchun hali ancha ishlashlari kerak. Ammo, san'at ichidagi san'at hisoblangan keng qamrovli "kompozitsiya" tushunchasi, uning tamoyillari bir-ikki odamning ko'rsatmasi, qarorlar bilan hal bo'la qolmaydi. U ko'p muhim aniqliklar talab qiladi. Masalani hal etishda, ijodkor musavvirmi, xaykaltarosh arxitektormi, bundan qat'iy nazar masalaning bir tomonini yoddan chiqarmasligi kerak. U kam bo'lsa kompozitsiya unsurlarida ijtimoiy muammolar va zamonaviy madaniyat ko'lami darajasini yanada kengroq aks ettirishdir. Shuni nazarda tutib ish ko'radigan bo'lsak, bugungi kunda yaratilgan kompozitsiyalar zamonamizning anchayin murakkab chizgilari bilan bezalishi lozim.

Kompozitsiyaning yaxlitligi, aloqasi va bir-biriga bog'liqligi muammosi kompozitsiya elementlarining takrorlanmasligi, turli-tumanligi vazifasi bilan uzilmas aloqadadir. Kompozitsiyada hech narsa takrorlanmasligi kerak. Uning kattaligi, dog'i, intervallari, tipi, jesti ya'ni harakat belgisi ham takrorlanmasligi kerak. Ularning hammasi bir butun dog' yoki siluetga birlashishi o'zbek rassomlari Abdulhak Abdullayev, Malik Nabiyev portretlari, rus

rassomlaridan M. Grekov, Surikov va Repin asarlarini olishimiz mumkin. Ko'pgina rassomlar o'zlarining ko'p figurali asarlarini yaratib, ko'p detallarini takrorlanmasligiga erishishgan [2, 56].

Kompozitsiyadagi tipiklashtirish qonuni uchta asosiy belgilari bilan xarakterlanadi.

Birinchi belgi — kompozitsiyadagi berilayotgan voqea va xarakterlarning tipikligi. Bu qonunning asosida xarakter orqali tipikligi berilgan badiiy asar yaratishdir. Bunga misol qilib A.K. Savrasovning "Qora qarg'alar uchib keldi", I. I. Levitanning "Qaynzor" kabi asarlarini olish mumkin. Bu asarlar juda mazmundor, qiziqarli, go'zal bo'lishi bilan birga, rus tabiatining tipik obrazini ochib beradi [2, 98].

Tipiklashtirish qonunining ikkinchi belgisi san'at asarida harakatni berish, vaqtni ko'rsatib bera olishdir. San'atning tomosha qilinuvchi, sintetik turlaridan (teatr, kinematograf) farqli ravishda tasviriy san'at syujetning rivojlanishidagi faqat bitta momentni. Hodisani o'zgarmas holatda tasvirlab beradi. Shuning uchun ham biz tasviriy san'atda harakatni berish to'g'risida gapirganimizda, harakatni his qilishni nazarda tutamiz.

Asarda harakatni aniq tasvirlash uchun tasvirlanayotgan voqeani kulminatsion nuqtasini topish, ya'ni oldingi harakatning belgilarini va keyingi bo'lajak voqealarni his qilish va tasvirlash lozim. Asarda qonunning bu belgilarini bera olmaslik kompozitsiyaning qotib qolishiga olib keladi. Bunda hattoki dinamik holatda tursa ham harakatni faqat tashqi ko'rinishi tasvirlanadi [2, 99].

Mana shuning uchun ham rassom hayotni harakatda, yangining tuzilishi jarayonida qura olishi juda muhim. Ko'p figurali kompozitsiyaga nisbatan, bir figurali kompozitsiyada harakatni berish juda qiyin.

Repinning "Kutmagan edilar" nomli asarida bir necha figura qatnashadi. Bu asarni tomosha qilgan kishi faqat tasvirlangan vaqtni emas, balki surgundan qaytgan kishi kirmasidan oldin ular nima ish qilib va qanday holatda o'tirganini ham tasavvur qila oladi. Uning paydo bo'lishi holati hozirgi holat sifatida his qilinadi. Chunki tasvirdagi boshqa barcha personajlar holatida oldingi harakat izlari saqlanib qolgan. Unda qari ona kresloni surgan holatda o'g'liga intilgani, xotini esa royal chalishdan to'htab, o'girilib qarab turgani tasvirlangan [3, 69].

Keyingi harakat esa tasvirlanmagan bo'lsa ham quvnoq shovqin-suronni, savol-javobni va quvonch ko'z yoshlarini his qilish mumkin. Bu asarda voqeaning kulminatsion nuqtasi aniq ko'rinib turibdi. Unda vaqt va harakat juda muvaffaqiyatli berilgani uchun ham asar juda hayotiy chiqqan.

Rassom-y.I.Pimenov o'zining "Yangi Moskva va Kechagi ko'chadagi to'y" nomli asarlarida ham zamonaviy shaharni harakatda bera olish. Uni ko'rgan tomoshabin voqealar xuddi ko'z oldida bo'lib turgandek his qilinadi [3, 72].

Tipiklashtirish qonunining uchinchi belgisi uning yangiligidir. Realistik san'at hayotni faqat haqiqiy holatda tasvirlash bilan birga, rassomning oddiy kundalik hayotdan zavqlanishini, uni estetik his qilishni ham ko'rsatib bera oladi. Tasvirlanayotgan materialni estetik jihatdan o'zlashtirish — san'atning spetsifik xususiyatlaridan biridir. Bu estetik qarashlarsiz u o'ziga-o'zi qarshi chiqadi. Demak badiiy obraz o'zida estetik sifatlarni namoyon qilishi va kompozitsion yechimda yangilik yaratishi zarur. Haqiqatan ham biz Mikelandjelo, Titsian, Rembrandt. A.A.Deyneka, A. A.Plastov, o'zbek rassomlaridan R.Ahmedov, O'.Tansiqboyev asarlarida biz dunyoni juda go'zal holatda ko'ramiz va his qilamiz [2, 93].

San'at asarlaridagi, jumladan, suratlardagi turli jonli va jonsiz predmetlar, tabiat manzaralari shunchaki tasvir etilmasdan ular bir-birlari bilan botiniy alokada bulib, bu munosabat ayni paytda ifoda etilayotgan mazmunni yorqinlashtiradi. Asarda kompozitsiya shu tarzda yaratiladi va namoyon buladi. Kompozitsiya musavvir imkoniyatlari va uni xayajonlantir- gan mavzu asosida yaratiladi xamda unda aks etgan san'at olamining turlanib kurinishida, jilolanishida asosiy rol o'ynovchi omillardan biri xisoblanadi. Kompozitsiyaga asos qilib olinadigan mavzu avvalambor musavvir, ijodkor shaxsning bilimi, o'z yurti, xalqining turmush tarzini qanchalik chuqur idrok eta bilishiga bog'lik bo'lib ijodiy maxorat bilan tanlanadi va aks ettiriladi. Mavzuni ifodali talqin qilish va uni shakllantirishdagi imkoniyat chegaralarini oldindan aniq belgilash kompozitsiya ijodkori oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

San'atshunoslikda tasviriy san'at asarlari kompozitsiyasining qanday tarzda talqin etilganiga alohida e'tibor bilan qarab, baxo beriladi. Ayniqsa, tabiat manzaralari, yirik, votqeaband mavzuli polotnolar va maxobatli devoriy asarlarning kompozitsiyalari, amaliy san'atdagi xalq xunarmand ustalarining maxorati va unga oid muammolar maxsus o'rganiladi [1,25].

Tasviriy san'atda kompozitsiya bir tomondan katta, murakkab va muhim mavzu bo'lsa-da, ikkinchi tomondan, uni muhim, majburiy narsa sifatida qabul qilmaslik kerak. Kompozitsiya tushunchasi go'zallik, uyg'unlik va estetika hissini shakllantirishga yordam beradi. Kompozitsiya qoidalariga rioya qilsangiz, mukammal asarga ega bo'lishingizga kafolat beradi. Sizda kompozitsiya tushunchasi mavjud bo'lsa, siz o'z ishingizga yanada malakali yondashasiz, eskizlarni xolstga uyg'unroq joylashtirasiz va o'z g'oyalaringiz va fikrlaringizni tomoshabinga ko'proq ekspressivlik bilan etkazasiz.

**Oltin kesim** — bu kartinani ikki qismga bo'lish orqali olingan maxsus nisbat bo'lib, butun kartina katta qism bilan bog'liq bo'lganidek, katta qism kichikroq bilan bog'liq bo'ladi.

**Uchdan birlik** — qoidasi yagona haqiqiy va eksklyuziv emas, lekin bu yaxshi kompozitsiyani yaratish uchun ideal vosita bo'lib, unda asosiy elementlar 3x3 panjaraning kesishish nuqtalarida joylashgan. Bu yaxshi "qo'llanma" va tasvirni yanada qiziqarli qilishning bir usuli.



**Toq son qoidasi** — bu yozilmagan qoida, ammo toq obyektlarning soni juftdan ko'ra jozibadorroq ekanligiga ishoniladi. Agar rasmda bir nechta obyekt bo'lsa, kamida uchta elementdan va odatda uchtadan iborat kompozitsiyani tanlash yaxshidir, chunki besh, etti yoki undan ortiq obyekt vizual ravishda chalkashishni boshlashi mumkin.

**Yo'l tuzilishi** — tomoshabinni asosiy markazga yo'naltirish uchun tasvir bo'ylab tarqalgan bir qator markazlashtirilgan nuqtalar. Ba'zan barcha markazlashtirilgan nuqtalar kompozitsiya uchun bir xil darajada muhimdir va unda vizual yo'l yoki halqa yaratadi.

**Simmetrik va assimetrik tuzilmalar.** Simmetrik tuzilmalarda tasvirning har ikki tomoni markaziy chiziq atrofida aks etadi. Bir tomon boshqasidan qisman farq qilganda, bu tasvirning spekulyarligini buzadi, assimetriya paydo bo'ladi [5,670].

Simmetrik kompozitsiya bugungi kunda unchalik mashhur emas, lekin avvalgi davrlarda nihoyatda keng tarqalgan va odatda diniy mavzudagi kartinalar bilan bog'liq. Simmetriya birlik, muvozanatni anglatadi. Masalan, Leonardo da Vinchining "Sirli oqshom" asari bitta fokus nuqtasi va o'rtacha chiziqli kompozitsiyaga ega simmetrik strukturadan foydalanadi. E'tiborni tortadigan birinchi narsa bu tasvirning markazida joylashgan Isoning joylashuvi, qolgan raqamlar esa ufq chiziqqa nisbatan teng taqsimlangan. Iso orqasidan qarama-qarshi yorug'lik oynasi tufayli ajralib turadi. Istiqbolning barcha chiziqlari Isoning yuzida birlashadi. Chap tomon o'ng tomonga qaraganda ancha quyuqroq va ehtimol, bu tasvirni muvozanatlashga yordam beradi. O'z navbatida, har ikki tomonning raqamlari bir-biridan farq qiladi, bu esa freskaga assimetriya elementini kiritadi.

Rafaelning Uyg'onish davrining yana bir surati o'rta chiziq tarkibidagi yagona markazlashtirilgan nuqta tuzilishini, etakchi chiziqlarni va ramka tuzilishini birlashtiradi:

**Yetakchi chiziqlarning tuzilishi.** Ushbu tuzilishda aniq chiziqlar mavjud bo'lib, ularning ortidan tomoshabinning ko'zi tasvirning ma'lum bir qismini yoki qismlarini kuzatib boradi. Suratida oltin nisbatni uchdan birlar qoidasi va ehtimol, rasmni yorug'lik va qorong'u qismlarga ajratuvchi ufq chiziq bilan birgalikda kuzatish mumkin. Kompozitsiya asosiy obyektni va kema ekipajini ramkaga soladigan ko'rinadigan yo'naltiruvchi chiziqlar bilan tuzilgan [4,301]. Bu, shuningdek, bitta diqqat markaziga ega bo'lgan strukturadir, lekin ko'z hali ham jamoa a'zolarini kesib o'tadi, bu sizga qizning atrofida vizual ramkani belgilash va tomoshabinning qiziqishini saqlab qolish imkonini beradi. Yana, vizual qiziqish uchun, tasvirning chuqurligining yoqimli tuyg'usi mavjud va tog'lar, arqonlar va yelkanlar kabi obyektlarning siluetlari juda batafsil emas, lekin ular etarli vizual kontekstga ega. Buning yordamida tasvirning muhim qismlaridagi tafsilotlar, masalan, yuz, ayniqsa kuchli tarzda ajralib turadi va bizning ko'zlarimiz doimo qizga qaytadi.

**Kompozitsiya markazi.** Muvaffaqiyatli kompozitsiyada har doim asosiy urg'u obyekti joylashgan kompozitsion markaz mavjud. Boshqa barcha obyektlar atrofida joylashgan bo'lib, kompozitsion markazga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyatga ega.

Kompozitsiya markazi — bu sizning kompozitsiyangizda birinchi navbatda tomoshabin e'tiborini tortadigan joy. Bu eng muhim joy. Qolgan hamma narsa, kompozitsiyaning barcha boshqa elementlari kompozitsion markazga va undagi g'oya mavzusiga bo'ysunishi kerak.

Manzaralarda aks etga kengliklarga inson figurasini qo'shish orqali sizning ko'zingiz ufiq chizig'iga emas birinchi navbatta insonga e'tibor qaratadi. Garchi kompozitsiyada chiziqlar ufiqqa yo'naltirilgan bo'lsada inson gavdasi elementi kompozitsiya g'oyasini butunlay o'zgartirib yuboradi. Shuning uchun ham kompozitsiya mukammal va barcha qoidalari bir-birini ba'zida inkor etadi, ba'zida to'ldiradi [4, 302].

Bu qonunga asosan rassom yaxlit, ta'sirchan, fikriy-g'oyaviy jihatdan juda mazmundor san'at asari yaratadi. Chunki kompozitsiyaning tuzilishi barcha qismlari va detallari bilan formalistik — o'lik sxemaga emas, balki uning fikriy mazmuniga asoslanishi kerak.

San'at asari ustida ishlar ekan rassom uning kompoziyatsiyasi orqali o'zini tasvirlaydi, unga ma'naviy va estetik jihatdan baho beradi. Bu holatlar rassomning eng yuqori fikri va g'oyasi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, rassom o'zining fikri va g'oyasini kompozitsiya orqali bera olsa bu badiiy asarga aylanadi. Aks holda bu obyektiv real borliqni fotografik ko'chirish yoki mazmun va mohiyatdan holi bo'lgan tasvirga aylanadi.

Bu qonun hajmlar munosabatini (soni va sifati), rang, yorug'lik, ton va shakl, shuningdek, ritm va plastikasini berishi, harakat yoki nisbiy tinchlik holatini, simmetriya va assimmetriyasini hisobga olishni talab qiladi. U kartina o'lchamiga barcha shakllarning nisbiy o'lchamini, kompozitsiyaning syujet markazini boshqa qismlariga nisbatini aniqlashtirishni talab qiladi. Asarda yaxlitlik taassuroti hosil bo'lishi uchun qismlar va elementlarning o'lchamlari nisbatlarning garmonik uyg'unligini keltirib chiqarishi lozim. Bu vazifalar rassomning fikriy-g'oyaviy

mazmuniga mos holda yechilishi zarur. Shunday asarlar qatoriga M.B.Grekovning “Tachanka” asarini kiritishimiz mumkin [6, 85].

Bu qonuning mazmun va mohiyatidan ko‘rinib turibdiki asar yaratuvchi rassom kuchli aqlga, qaynoq yurakka va chuqur fikr bildirishga qodir inson bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham rassom uchun katta dunyoqarashga ega bo‘lishi juda zarur.

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish lozimki, yuqoridagi qonunlarga rassom faqat o‘z munosabatini bildirsa, tomoshabinga tushunarli bo‘lgan asar yaratishi mumkin emas. Chunki tasviriy san’atning asosiy vazifalaridan biri bu insonlar orasidagi muomala vositasi bo‘lib xizmat qilishdan iboratdir. Yuqorida keltirib o‘tilgan qonunlar abstraktsionizm va naturalizmga juda begonadir.Nazariya amaliyotini kerakli bilimlar bilan qurollantiradi, aniqroq qilib aytganda asrlar davomida rassomlar tomonidan to‘plagan boy materialni sistemali ravishda san’atga qaytaradi. San’at nazariyasi, rassomning yoshlik davridan boshlab shakllangan dunyoqarashi kabi juda katta ahamiyatga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tuxtabek Soibov. Kompozitsiya o‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti 1999. – 270 bet.
2. E.X.Xaitov. Kompozitsiya. T.- Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi. 2019. – 112 b.
3. X. Sultanov. “Rangtasvir” (Akvarel Rangtasvirda ishlash). O‘quv qo‘llanma. T.- Fan va texnologiya. 2019. 220 bet.
4. Ibragimov X.X. (2023). From the History of Pedagogical Problems of the Development of the People’s Practical Decorative Art. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, *1*(3), 300–310. http://academiaone.org/index.php/2/article/view/147
5. Ibragimov, X. X. (2023). Tasviriy san’at mashg‘ulotlarini tabiat qo‘ynida tashkil etish orqali o‘quvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish. *O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, *2*(20), 688-696.
6. Ibragimov Xurshid Xasanovich, (2023). The development of pleasure in the fine arts of uzbekistan. Current research journal of pedagogics, 4(05), 79–90. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-05-12

# MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G‘URUR HISSINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Shaxnoza Kadirova,**
Termiz davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b., (PhD)

***Anotatsiya***

*Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida muntazam tashkil etiladigan, tarbiyalanuvchilarni Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va buyuk ajdodlar ma’naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlar jarayonida xalqimizning boy ma’naviy-madaniy merosi, sharqona va umumbashariy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydi.Maqola mavzusini ochib berish maqsadida tadqiqot mavzusiga oid bo‘lgan ilmiy tadqiqot manbalaridan foydalanildi. Maqola tadqiqotida asosan adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish va ularning mazmunidagi farqli jihatlarni tahlil qilish metodidan foydalanildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *maktabgachga yosh, milliy g‘urur, maktabgacha ta’lim tashkiloti, ma’naviy meros, sharqona tarbiya.*

***Аннотация***

*Богатое духовное и культурное наследие нашего народа, восточное и определяет будущее страны и нации на основе общечеловеческих ценностей.Для раскрытия темы статьи были использованы научные источники, связанные с темой исследования. В исследовании статьи преимущественно использовался метод сравнительного анализа литературы и анализа различных аспектов их содержания.*

***Ключевые слова:*** *дошкольный возраст, национальная гордость, организация дошкольного образования, духовное наследие, восточное образование.*

***Annotation***

*The rich spiritual and cultural heritage of our people, oriental and determines the future of the country and nation on the basis of universal values. In order to reveal the topic of the article, scientific research sources related to the research topic were used. The research of the article mainly used the method of comparative analysis of literature and analysis of different aspects in their content.*

***Keywords:*** *preschool age, national pride, organization of preschool education, spiritual heritage, oriental education.*